

BARQAROR TINCHLIK O'RNATISHDA MADANIY VOSITACHILIK VA TARJIMANING O'RNI: YEVROPA ITTIFOQI MISOLIDA



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-25-55-64>

Kambarova Guzal Kamoldinovna

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi,

Mustaqil tadqiqotchi

e-mail: kambarovaguzal@yahoo.com

tel: +998971461184

Annotatsiya: Mazkur maqolada madaniy vositachilik (interkultural mediatsiya) tushunchasining mazmuni, uning tarjima faoliyatidan farqi va Yevropa mamlakatlarida qo'llanish tajribalari tahlil qilingan. Madaniy vositachilik til va madaniyatlararo tafovutlarni bartaraf etish, ijtimoiy integratsiyani ta'minlash hamda samarali muloqotni yo'lga qo'yishga xizmat qiluvchi ko'p qirrali jarayon sifatida talqin etiladi. Maqolada Yevropa mamlakatlarida ushbu faoliyat turli atamalar orqali ifodalanishi, biroq uning mohiyati – madaniyatlararo to'siqlarni yengish – umumiy ekani ta'kidlangan. Shuningdek, bu faoliyatning sog'liqni saqlash, ta'lim va davlat xizmatlarida qo'llanishi hamda uning ijtimoiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: madaniy vositachilik, mediatsiya, madaniyatlararo muloqot, madaniy xilma-xillik, millatlararo totuvlik, barqaror tinchlik, tarjima.

Аннотация: В данной статье анализируется понятие культурной медиации (межкультурной медиации), его отличие от деятельности перевода и опыт применения в странах Европы. Культурное посредничество трактуется как многогранный процесс, направленный на устранение языковых и межкультурных различий, обеспечение социальной интеграции и установление эффективной коммуникации. В статье подчеркивается, что несмотря на разнообразие терминологии в разных странах Европы, суть деятельности едина — преодоление межкультурных барьеров. Освещается применение культурного посредничества в таких сферах, как здравоохранение, образование и государственные службы, а также его социальная значимость.

Ключевые слова: культурное посредничество, медиация, межкультурная коммуникация, культурное многообразие, межнациональное согласие, устойчивый мир, перевод.

Abstract: This article analyzes the concept of cultural mediation (intercultural mediation), its distinction from the activity of translation, and the practical experience of its application in European countries. Cultural mediation is presented as a multifaceted process aimed at overcoming linguistic and intercultural differences, fostering social integration, and establishing effective communication. The article emphasizes that despite the varied terminology used across European countries, the core idea remains the same — bridging intercultural divides. The paper highlights the application of cultural mediation in areas such as healthcare, education, and public services, as well as its broader social significance.

Keywords: cultural mediation, mediation, intercultural communication, cultural diversity, interethnic harmony, sustainable peace, translation.

KIRISH

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning qoq markazi hamda Buyuk Ipak yo‘lining eng asosiy chorahalarida joylashgani madaniy turfa xillikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Buyuk Ipak yo‘li orqali Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo-sotiq, ilm-fan, san‘at va madaniyat almashinuvi jarayonlari O‘zbekiston hududida madaniy xilma-xillikni yuzaga keltirdi, mamlakatda turli dinlar, tillar va an‘analarning uyg‘unlashgan holda yashashiga zamin yaratdi.

Hozirgi kunda ham O‘zbekistonning madaniy xilma-xilligi va madaniyatlararo muloqotni qo‘llab-quvvatlash muhim siyosiy ahamiyatga ega. Zero, boshqa millat va elatlarning madaniyati, tili, urf-odatlar, an‘analarini hurmat qilish va ularga erkin sharoit yaratib berish, millatlararo totuvlik hamda barqaror tinchlik o‘rnatishga asos bo‘ladi. Tarixiy madaniy yodgorliklar, milliy bayramlar va madaniy tadbirlar mamlakatning boy madaniy merosini yorqin namoyon etadi. Mazkur merosning saqlanib qolishida va turli millatlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, ziddiyatlar, to‘siqlar hamda shu bilan bog‘liq muammolarni oldini olishda asosiy masala nimada ekanligini aniqlab olish muhim hisoblanadi. Chunki, yuqorida ko‘rganimizdek, madaniyat keng qamrovli tushuncha bo‘lib, o‘zida turfa xillikni aks ettiradi. Xilma-xilliklarni o‘zaro bog‘lab turuvchi vosita - til ekanligini isbotlash va madaniy axborotning to‘g‘ri yetkazilishini ta‘minlashda til va tarjimaning ahamiyati ilmiy tadqiqotimizning asosiy maqsadi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida belgilanganidek: “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning

tillari, urf-odatlarini va anʼanalari hurmat qilinishini taʼminlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvardagi 10-sonli qaroriga koʻra Respublika Baynalmilal madaniyat markazi faoliyati qaytadan muvofiqlashtirildi. Baynalmilal madaniyat markazlarini tashkil etishdan maqsad milliy madaniyat, til, urf-odatlarni saqlash va rivojlantirishni oʻrganish boʻlib, Oʻzbekistonda yashovchi har bir millatning urf-odati va anʼanalari, ularning manfaatlarini himoya qilish uchun hududlarda milliy madaniyat markazlari tashkil qilishdan iborat.

Milliy madaniyat markazlari bir tomondan turli millat va elat vakillarining tillari, urf-odatlarini, anʼanalari va madaniyatini saqlab qolishga qaratilgan faoliyat bilan shugʻullansa, ikkinchi tomondan madaniy vositachilik vazifasini bajarayotganliklarini va oʻz faoliyati orqali millatlararo totuvlik va barqaror tinchlik oʻrnatishga hissa qoʻshayotganliklarini kuzatish mumkin. Milliy madaniyat markazlari faoliyatini yurituvchi shaxslar oʻz tillari, urf-odatlarini, anʼanalari va madaniyatini yaxshi egallagan boʻlishlari, shu bilan birga boshqa millat madaniyatiga hurmat bilan qarashi lozim.

Ikkinchi jahon urushidan soʻng, jahon hamjamiyati kelajakdagi mojarolarning oldini olish, inson huquqlarini himoya qilish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarurligini angladi. Shu munosabat bilan dunyo miqyosida bir qator muhim xalqaro tashkilotlar, bitimlar, kelishuvlar tuzildi, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Butunjahon inson huquqlari deklaratsiyasi, BMTning Taʼlim, Fan va Madaniyat masalalari boʻyicha tashkiloti (YUNESKO). Bu tashkilotlar faoliyati asosan xalqaro tinchlik va xavfsizlikni taʼminlash, davlatlar oʻrtasida doʻstona munosabatlarni rivojlantirish, ijtimoiy rivojlanish, yaxshi turmush darajasi va inson huquqlarini himoya qilish, millatlararo totuvlikni taʼminlashga qaratilgan.

Xalqaro maydonda barqaror tinchlik oʻrnatish va millatlararo totuvlikni taʼminlash, jahon madaniy meros obʼektlarini muhofaza qilish, savodxonlikni rivojlantirish va globallashtirish sharoitida madaniy turfa xillikni himoya qilishda YUNESKO muhim oʻz hissasini qoʻshishda davom etmoqda. YUNESKoning Madaniy xilma-xillik toʻgʻrisidagi Butunjahon deklaratsiyasi (UNESCO Universal Declaration on Cultural Diversity) — 2001-yil 2-noyabrda YUNESKO Bosh konferensiyasi tomonidan qabul qilingan boʻlib, asosiy maqsad globallashtirish va xalqaro aloqalarning tez surʼatlarda rivojlanishi madaniy xilma-xillikka tahdid solishi mumkinligi sababli, ushbu deklaratsiya madaniy xilma-xillikni saqlab qolish, himoya qilish va rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan. U madaniy xilma-xillikni tinchlik, barqaror rivojlanish va sivilizatsiyalar oʻrtasidagi muloqot uchun muhim omil sifatida eʼtirof etadi. Deklaratsiya demokratik jamiyatlarni

rivojlantirish uchun madaniy xilma-xillikni himoya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Bu deklaratsiya a'zo mamlakatlar uchun xalqaro va milliy madaniy siyosat tizimini takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. 2005-yilda ushbu deklaratsiya asosida "Madaniy ifoda shakllari xilma-xilligini muhofaza qilish va rag'batlantirish to'g'risida"gi Konvensiya qabul qilindi. Ung ko'ra, madaniy xilma-xillik butun insoniyatning umumiy boyligi hisoblanib, har bir madaniyat yashash va rivojlanish huquqiga ega, shuningdek, har bir inson o'z jamiyatining madaniy hayotida ishtirok etish erkinligi va huquqi belgilab berilgan.

Madaniy vositachilik tushunchasining mazmuni va Yevropa mamlakatlarida amaliy qo'llanilishi

Bugungi kunda, turli siyosiy va iqtisodiy vaziyatlar ta'siri ostida g'arb va sharq mamlakatlarida muhojirlar harakatining soni sezilarli darajada o'sib bormoqda. Natijada, ko'pgina vaziyatlarda turli madaniyat va e'tiqod vakillari to'g'risidagi xato taxminlar, tushunmovchiliklar, yoki aytilgan va qilingan ishlarni noto'g'ri talqin qilinishi sababli ijtimoiy, siyosiy hamda iqtisodiy anglashmovchiliklar yuzaga kelmoqda. So'ngi o'n yillik ichida dunyo maydonida yuz berayotgan siyosiy beqarorlik, davlat boshqaruv tizimidagi muammolar, nizolar, urushlar, inson huquqlarining buzilishi, moliyaviy inqiroz va tabiiy ofatlar tufayli Yevropaga muhojirlar oqimlari sonining o'sishi kuzatildi. Yevropaga ko'chib kelayotgan muhojirlarni quyidagi umumiy toifalarga bo'lish mumkin: uchinchi davlat fuqarolari, Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan davlat fuqarolari, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlari fuqarolari¹. Odamlar o'z vatanini tark etishga majbur qiluvchi muammolarning murakkabligi Yevropada o'ziga xos migratsiya mozaikasini shakllantirib, o'z navbatida, Yevropaning umumiy va milliy darajadagi muhojirlik va integratsiya siyosatlarini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratilishini taqozo etmoqda.

O'tgan asrning 60–70 yillarda kuzatilgan migratsiya jarayoni, muhojir aholiga nisbatan integratsiya siyosati amalga oshirishga ehtiyoj tug'ildi. Bu siyosat yaxshi muloqot va madaniyatlarni o'zaro tushunish, turli madaniyatlar o'rtasida xabardorlikni oshirish va targ'ib qilishga ko'maklashdi. Natijada, mahalliy aholi qatlamlari bilan teng ravishda muhojirlar ham jamiyatning to'liq ishtirokchisiga aylandi, davlat xizmatlaridan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi va xizmatlarni yaxshilash turtki bo'ldi². Shu munosabat bilan, madaniy vositachilik dasturi Yevropa kelgan muhojirlarning murakkab tizimlarga moslashishi va kirishishiga yordam beruvchi qo'llanma sifatida foydalanilmoqda.

¹ Research Report on Intercultural Mediation for Immigrants in Europe — Intellectual Output No 1, Erasmus+ TIME, 2015, 2016, p. 5.

² *ibid.*

Madaniy vositachilikning asosiy markazida til turishi, til har qanday madaniyatda muhim ramz hisoblanishi to'g'risida olimlar o'z fikrlari bilan o'rtoqlashishgan. Jumladan, til — har qanday madaniyatda muhim ramzlardan biri hisoblanadi [Hersent J. 2007, 159 b]. Lekin, u madaniyatning yagona ifodasi bo'lmasa-da, u barcha boshqa ifoda vositalarini o'z ichiga oladi, chunki ularning barchasini so'zlar orqali bayon etadi. Shu sababli, til markaziy o'rinni egallaydi va uning yo'qolishi, darhol bo'lmasa-da, uzoq muddatda butun madaniyatning yo'qolishiga olib kelishi mumkin [Hagège C. 2000, 220 b]. Bundan ko'rinadiki, madaniyatlararo muloqotni o'rnatishda tarjimon ko'prik vazifasini bajaradi. Braziliya Milliy tadqiqot markazi olimi Machado da Silva fikricha, tarjima ikki millatni gapirishga, o'zaro tushunishga chorlaydi. Tarjimondan tushunish va tushuntirishni talab qiladi va shu tariqa uni boshqa bir madaniyatni anglashga vositachi sifatida ko'maklashadi [Machado da Silva, J., 2010, 183 b].

Ikki xil madaniyatni bog'lashda, tarjimon mazkur madaniyatlardagi farqni qabul qilishi va uni boshqasiga to'g'ri yetkazishga mas'uldir. Tarjimon ko'nikmasi haqida, fransuz olimi Xersent shunday deydi: "Tarjimon bir tomondan manba matnning konteksti va boshqa tomondan tarjima qilingan muhitni, madaniy tasavvur va fikriy muhit qanday bo'lganini tahlil qila olish ko'nikmasiga ega shaxsdir" [Hersent J. 2007, 161 b]. Bundan anglash mumkinki, tarjima ham millatlarni, ham madaniyatlarni bog'laydigan vositachi vazifasini bajaradi.

Madaniy vositachilik tushunchasi Yevropada 1980-yillarning oxiridan boshlab ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra muhojir aholining sog'liqni saqlash tizimi faoliyatidan yaxshiroq foydalanishga, tibbiyot xodimlari va bemorlar o'rtasida o'zaro aloqani yaxshi o'rnatishga, shaxsiy farovonlik haqida, kasallik tarixi, tug'ilish, o'lim va boshqa kabi sog'liqni saqlash doirasidagi muammolarga ijobiy yechim topishga qo'llanilgan [Cartarci M. 2016, 129 b]. Madaniy vositachilikni muhojirlari boshdan kechirayotgan madaniy va til to'siqlarini kamaytirishga yordam beradigan yanada inklyuziv yondashuv ekanligini ko'rish mumkin. Shu munosabat bilan, Yevropadagi muhojirlar siyosatida integratsiyalashuv asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, Yevropa Komissiyasi integratsiyani farovonlik, xavfsizlik va tinchlikka erishishning samarali vositasi sifatida qo'llab-quvvatlaydi. Shu doirada barcha a'zo davlatlar integratsiya siyosati va qonunlarini Yevropa Komissiyasining yo'riqnomalari va siyosatlariga moslashtirish yo'lida ish olib bordilar³. Yevropa mahalliy aholisi va muhojirlar, shuningdek ayrim aholi toifalari duch kelayotgan kamsitishlarga qarshi kurashish jarayonida madaniy muloqotni ishlab chiqish va yo'lga qo'yishga ehtiyoj tug'dirdi.

³ Research Report on Intercultural Mediation for Immigrants in Europe — Intellectual Output No 1, Erasmus+ TIME, 2015, 2016, p. 14.

Integratsiyalashuv bosqichi osonlashtirish va tezlashtirish maqsadida, Yevropa Ittifoqi tomonidan 2008 yil “Yevropa madaniyatlararo muloqot yili” deb e’lon qilindi⁴.

Shu o’rinda, turli millat va madaniyatlar, e’tiqodlar va qarashlar o’rtasidagi tafovut, shuningdek anglashmovchiliklarni oldini olish, hamda barqaror tinchlik o’rnatishda vositachilik faoliyati haqida to’xtalib o’tish lozim. Bir millat yoki elatga oid bo’lgan madaniy tushunchalarni yetkazishda vositachilarning vazifasi muhimdir. Qadimda ikki millat yoki davlatlar o’rtasidagi vositachilik vazifasini tarjimonlar hamda elchilar bajarib kelishgan. Mediatsiya, ya’ni vositachilik atamasi ko’proq huquq va ijtimoiy sohalarida, ya’ni nizolarni boshqarish doirasida ishlatiladi. Nizolarni hal qilishda vositachilikni quyidagi sohalarida qo’llanilishi mumkin: tijorat, huquq, diplomatiya, ish joyi, jamoatchilik, oilaviy masalalar. Murosaa, y’ani nizoli kelishuvlarni hal qilish nuqtai nazaridan vositachilik huquq sohasida baxsli munozaralarni tinch yo’l bilan hal qilishning muqobil usuli sifatida qo’llaniladi.

“*Cultural mediation*”, ya’ni madaniy mediatsiya ko’pincha tarjimonlik va muhojirik sharoitidagi muzokara olib borish jarayonlariga tegishli. Madaniy mediatsiya, avvalo munosabatlar (shaxs/guruh, jamoat ishi/tashkilotlar, hudud/vaqt)da san’atga oid tajribalar, amaliyotlar haqida fikr yuritishga (yaratish, tarqatish va qabul qilish) va barcha toifadagi omma uchun teng ravishda (jarayonda bo’lish va ishtirok etish) sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi [Caune J. 2012, IX b]. Shu nuqtai nazardan, madaniy vositachilik muhojirlarni qabul qiluvchi jamiyatga integratsiya qilishning eng mos, kamxarj va manfaatli usuli sifatida qaralib, madaniy vositachilarga muassasalar va muhojirlar o’rtasida ko’prik vazifasini bajarish kabi muhim mas’uliyat yuklaydi⁵. Madaniy vositachilarning roli va maqomi mahalliy madaniy boshqaruv siyosatini shakllantirishda asosiy masala hisoblanadi.

Biron bir tilda *cultural mediation* ya’ni, madaniy vositachilik tushunchasi yagona aniq ta’rifga ega emas. Jumladan, Yevropada madaniy vositachilik atamasidan turlicha foydalaniladi, masalan, Germaniyada – integratsiyani osonlashtiruvchilar yoki til vositachilari, Belgiya, Gretsiya, Portugaliya, Ispaniya va Shveytsariyada – madaniyatlararo vositachilar, Avstriyada – madaniy/jamoat tarjimonlari, Fransiyada – ijtimoiy sohada madaniy vositachilar yoki tarjimonlar, Italiyada – madaniy vositachi yoki til vositachi kabi atamalar qo’llaniladi. Shunday

⁴ Decision No 1983/2006/EC of the European Parliament and of the Council of 18 December 2006 concerning the European Year of Intercultural Dialogue (2008), available on <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=celex%3A32006D1983>, 2025 yil, 26 mart kuni murojaat qilindi.

⁵ Research Report on Intercultural Mediation for Immigrants in Europe — Intellectual Output No 1, Erasmus+ TIME, 2015, 2016, p. 14.

bo'lsa-da, barcha mamlakatlar uchun uning asosiy g'oyasi va prinsipi bir xil – madaniyat va til o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishdir⁶.

Fransiya amaliyotiga “madaniy mediasiya” atamasi 1990 yillar boshida kirib kela boshlagan, va 1997 yildan boshlab madaniy faoliyatlar va ularni joriy etishdagi ma'lum bir faoliyat turi uchun qo'llanila boshlangan [Bordeaux M. 2008, 2 b]. Ma'lum bir faoliyat turi deganda, ishsizlikni kamaytirish, yoshlarni kasbga yo'naltirish, yangi ish bilan ta'minlash maqsadida “Yangi xizmat — yosh xodim” dasturini qabul qilinishi va yangi turdagi mutaxassisliklarni joriy etilishi nazarda tutilgan [Guitton C. 2000, 21 b]. Unga ko'ra vazirliklar va mahalliy davlat tashkilotlari o'zaro kelishgan holda yangi ish o'rinlarini yaratishlari va yoshlarni bu ish o'rinlariga jalb qilishlari lozim.

Oreli Peyren, sotsiolog, Marsel iqtisodiyot va boshqaruvi universiteti katta o'qituvchisi, mediatorlik kasbini ommani yo'naltiruvchi milliy yo'lboshlovchi (gid), milliy yoki hududiy yo'lboshlovchi tarjimon, mamlakat va shaharlarning merosi bilan bog'liq tarixi va san'atlari o'zaro bog'lab turadigan madaniy tadbirlar tashkilotchisi sifatida o'rganadi [Peyrin A. 2010, 40 b]. Olivye Rishar va Sara Baret ta'kidlashlaricha, mediasiya tushunchasi shunchalik murakkab va keng qamrovli bo'lib, o'z navbatida murabbiy/rahbar, tashkilotchi, gid yo'lboshlovchi, agent, “talqinchi”, ko'rsatuvchi, tarjimon, “vositachi”, yordamchi, ro'yxatga oluvchi, mediator, joriy etuvchi, “mediator” kabi turli atamalarga murojaat qilishni talab qiladi [Richard O, Barrett S. 2011, 5–12 b].

Madaniyatlararo vositachilik madaniyat hamda til masalalariga e'tibor qaratadi hamda muloqotning murakkab va ayni paytda ko'p fanli xususiyatiga yo'naltiradi. Tarjima va madaniyatlararo vositachilikdagi umumiy elementlardan biri bo'lgan metaforalarni talqin qila olish muhojirlarning qabul qiluvchi jamiyatga integratsiyalashuvini osonlashtirishga ko'maklashadi. Insonlarning madaniyati, tili, dini, urf-odatlar hamda tarixiy-geografik kelib chiqishiga ko'ra xilma-xilligi inobatga olinadigan bo'lsa, integratsiyalashuv jarayonida metaforalarga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Metaforalarni tasniflash formulalari juda katta hajmni tashkil etadi va tarjimonlar oldiga katta mas'uliyatni yuklaydi [Rofieva G. 2020, 52 b].

Tarjimadan farqli ravishda, madaniyatlararo vositachilik rasmiy kasb sifatida tan olinmagan, shuning uchun madaniyatlararo vositachilarning roli aniq belgilanmagan va rasmiy e'tirof etilmagan. Madaniyatlararo vositachi tananing imo-ishoralarini anglash, huquqiy va tartibiy masalalar bo'yicha asosiy bilimlarga ega bo'lish, yuqori darajada empatiya va ongli bo'lish, maxfiylik va betaraflikni

⁶ *ibid*, 27-28 bb.

saqlash kabi ayrim maxsus ko'nikmalar va kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak. Demak, madaniy vositachilik tarjimondan farqli o'laroq, jiddiy mas'uliyatli vazifa bo'lib, qonuniy asoslarga ega bo'lishni talab etadi.

Ta'kidlash lozimki, madaniyatlararo vositachilik yo'nalishida o'qitilmagan tarjimon ikki tomon o'rtasida til farqlarini bartaraf etish orqali ma'nolarni aniq yetkazish qobiliyatiga ega bo'lishi mumkin. Lekin, u madaniyat, din, siyosat yoki boshqa ijtimoiy omillar tufayli yuzaga keladigan haqiqiy ehtiyojlarni to'liq tushunib, ularni yetarlicha yetkaza olmasligi ham mumkin, bu esa ijobiy madaniyatlararo muloqot o'rnatish imkoniyatini cheklaydi. Shuningdek, tarjimon sifatida mutaxassislikka ega bo'lmagan madaniyatlararo vositachi tomonlardan birining tili va madaniyatini yuqori darajada tushunishi mumkin, ammo ikkinchi tomonning tili va madaniyatini yetarli darajada anglay olmasligi ehtimoli bor. Bu esa muloqotdagi nuqsonlar, taqdim etilayotgan ma'lumot sifatining pasayishi yoki ko'rsatilayotgan xizmatlarning samarasizligiga olib kelishi, natijada vaziyatni muvaffaqiyatli hal qilishni qiyinlashtiradi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, madaniy vositachilikni farqlar va tushunish o'rtasidagi muammolarni hal qilish vositasi sifatida ta'riflash mumkin. Madaniy vositachilik – turli millat vakillarining o'z ovozlari erkin ifoda etishlariga yordam beradi, ularga qabul qiluvchi davlatda yashash sharoitiga moslashishga, o'z hayotini qayta tiklash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, til bilan bog'liq tushunmovchiliklar ham xizmat ko'rsatuvchi, ham mijoz uchun noqulaylik tug'dirib, ular o'rtasidagi munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, bunday xavflarni oldini olish maqsadida madaniy vositachilik til to'siqlarini yengib o'tish va noto'g'ri tushunishlarni bartaraf etish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin. Madaniy vositachilik sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniy tashkilotlar, davlat xizmatlari va boshqa turdagi xizmat ko'rsatish markazlarida turli millat vakillari bilan yaxshiroq tushunishni osonlashtirish maqsadida qo'llanilishi mumkinligi ko'rib o'tildi.

Madaniyatlararo vositachilik ma'lumotlarni jo'natuvchidan qabul qiluvchiga va aksincha yetkazishning ancha keng hamda boy uslubidir. Madaniy vositachilik faqatgina tarjimadan iborat emas, balki u madaniy axborotni yetkazish va qabul qilish, madaniyatlar o'rtasida tushunishni shakllantirish, huquq himoyachisi sifatida harakat qilish va boshqa millat vakili o'z ovozini eshittirishga undaydi. Bundan tashqari, madaniyatlararo vositachilik turli madaniyatlar, ma'nolar, imo-ishora tillari, atamalar va iboralar o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tarjima va madaniyatlararo vositachilik shaxslararo muloqotning ikki muhim jihatidir, har biri o'ziga xos yondashuvga ega bo'lishiga

qaramay, ular bir-birini to'ldirib, muvaffaqiyatli muloqot o'rnatishni ta'minlaydi. Tarjima asosan e'tiborni xabarning ichki ma'nolariga emas, balki til tuzilishiga e'tibor qaratadi. Bundan tashqari, tarjima qonuniy huquqlarga ega bo'lgan rasmiy kasb hisoblanadi, shuning uchun kasbiy tarjimon aniq standartlarga va odob-axloq qoidalariga rioya qilishi kerak. Bular qatoriga tomonlarning so'zlarini aniq yetkazish, hech narsa qo'shmaslik yoki kamaytirmaslik, o'z shaxsiy fikrini bildirmaslik, rozilik yoki norozilik bildirmaslik va hech bir tomonga yon bosmaslik kiradi.

Madaniyat avvalo, munosabatlar, anglash, tafakkur qilish, qadriyatlar, e'tiqodlar, g'oyalar va xulq-atvor haqidagi tushunchalarni ham o'z ichiga oladi. U insonning o'z millati yoki etnik mansubligi doirasi chegarasidan yanada kengroq bo'lishi, ba'zan esa undan farq qilishi mumkin. To'g'ri tarjima boshqa madaniyatni to'g'ri tushunish hamda talqin qilish orqali ahil va o'zaro hurmatga asoslangan jamiyat tuzish va unda barqaror tinchlik o'rnatish mumkin. Madaniy vositachilik kasbining joriy etilishi, hatto kichik miqyosda ham muvaffaqiyatli bo'lib, totuv jamiyat yaratishda ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvardagi 10-son qarori “Respublika Baynalmilal madaniyat markazi to'g'risida”.
3. Universal Declaration on Cultural Diversity. Paris : UNESCO, 2 November 2001.
4. Convention on the Protection and Promotion of the Diversity of Cultural Expressions. Paris : UNESCO, 2005.

Ilmiy maqolalar, tadqiqotlar, hisobotlar va konferensiya materiallari

5. Bordeaux M.-C. La médiation culturelle en France, conditions d'émergence, enjeux politiques et théoriques // Culture pour tous: Actes du Colloque international sur la médiation culturelle. Montréal, 2008. 2b.
6. Cartarci M. Intercultural Mediation as a Strategy to Facilitate Relations between the School and Immigrant Families // Revista Electrónica Interuniversitaria de Formación del Profesorado. 2016. Vol. 19, № 1. 127–140 bb.
7. Caune J. La médiation culturelle : le sens des mots et l'essence des pratiques / sous la dir. de J.-M. Lafortune. Québec : Presses de l'Université du Québec, 2012. IX b.
8. Decision No 1983/2006/EC of the European Parliament and of the Council of 18 December 2006 concerning the European Year of Intercultural Dialogue (2008)

[elektron manba]. URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=celex%3A32006D1983> (murojaat qilingan sana: 26.03.2025).

9. Guitton C. La professionnalisation, nouvelle catégorie de l'intervention publique : L'exemple du programme « Nouveaux services, nouveaux emplois » // Formation Emploi. 2000. № 70. 13–30 bb.
10. Hagège C. Halte à la mort des langues. Paris : Odile Jacob, 2000. 220 b.
11. Hersent J. Traduire: rencontre ou affrontement entre cultures? // Hermès. Paris : CNRS Éditions. 2007. № 49. 159-167 bb.
12. Machado da Silva J. Traduction et communication: la reliance des cultures // Hermès. № 56. Paris : CNRS Éditions, 2010. 181–187 bb.
13. Olivier R., Barrett S. Les Médiateurs scientifiques en Europe: une diversité de pratique, une communauté de besoin // La Lettre de l'OCIM. 2011. № 135. 5–12 bb.
14. Peyrin A. Être médiateur au musée. Sociologie d'un métier en trompe-l'œil. Paris : La Documentation française, 2010. 40 b.
15. Rofieva G.Yu. O'zbek tilidan fransuz tiliga kontseptual metaforalar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari : diss. ... nomzodi filol. fan. – Toshkent, 2020. 52 b.
16. Research Report on Intercultural Mediation for Immigrants in Europe — Intellectual Output No 1. Erasmus+ TIME. 2015–2016.